

KORRUPSIYAGA OID JINOYATLARNING OLDINI OLISH MUAMMOLARI

Xo`jametova Gulhayo Muxtor qizi
gulhayomuxtorqizi@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada korrupsiya va korrupsiyaviy jinoyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi shart-sharoitlar hamda ularning oldini olish muammolari, bu borada xorijiy olimlarning nazariy qarashlari batafsil yoritilgan. Shuningdek, maqolada mazkur turdagi jinoyatlarning oldini olish borasidagi xorijiy davlatlar tajribasi qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil etilgan hamda ular asosida ilmiy taklif va xulosalar berildi.

Kalit so`zlar: korrupsiya, jinoyat, korrupsiyaga oid jinoyat, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik, jinoiy javobgarlik, korrupsiyaga qarshi kurashish.

PROBLEMS OF PREVENTION OF CORRUPTION CRIMES

Khujametova Gulkhayo Mukhtor kizi

Master's degree student of Tashkent State University of Law

Abstract. This article describes in detail the conditions that cause the occurrence of corruption and corrupt crimes and the problems of their prevention, as well as the theoretical views of foreign scientists in this regard. Also, in the article, the experience of foreign countries in the prevention of this type of crime was analyzed from a comparative and legal point of view, and scientific suggestions and conclusions were given based on them.

Keywords: corruption, crime, corruption crime, criminal responsibility, anti-corruption.

ПРОБЛЕМЫ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ КОРРУПЦИОННЫХ ПРЕСТУПЛЕНИЙ

Хужаметова Гулхаё Мухтор кизи

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье подробно описаны условия, обуславливающие возникновение коррупции и коррупционных преступлений и проблемы их предотвращения, а также теоретические взгляды зарубежных ученых на этот счет. Также в статье со сравнительно-правовой точки зрения проанализирован опыт зарубежных стран по предупреждению данного вида преступлений и на его основе даны научные предложения и выводы.

Ключевые слова: коррупция, преступность, коррупционная преступность, коррупционное правонарушение, борьба с коррупцией.

Korrupsiya transmilliy hodisa sifatida butun dunyo hamjamiyatiga tahdid solmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurash siyosati turli mamlakatlarda ularning tarixiy va iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda ham korrupsiya ko‘lamini cheklash muammosi kundan-kunga eng dolzarb, murakkab va munozarali muammo bo‘lib qolmoqda. Chunki korrupsiyaning chuqurlashib borishi va uning keng qamrovi, jamiyat hayotining barcha jabhalariga kirib borishi, uning “milliylashtirish” tendensiyalari (davlat lavozimlarini shakllantirishning korrupsiya mexanizmlari) va uning boshqa salbiy sifat ko‘rinishlari jamoatchilik ongida O‘zbekistonda korrupsiya illati abadiy ekanligi haqidagi fikrning kuchayishiga olib keladi va unga qarshi kurash muvaffaqiyatsiz va foydasiz kechadi.[1]

Yuridik adabiyotlarda korrupsiyaning ikki turi namoyon bo‘lish darajasiga ko‘ra aniq farqlanadi: yuqori darajadagi korrupsiya (shu jumladan, elita-hokimiyat korrupsiyasi) va asosiy yoki maishiy korrupsiya. Ushbu turlarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega hamda jamiyat va davlat hayotiga salbiy ta’sir qiladi. Ammo olimlar, amaliyotchilar va siyosatchilar o‘rtasida korrupsiyaning bu ikki ko‘rinishidan qaysi biri xavfliroq ekanligi uzoq vaqtdan beri muhokamalarga sabab bo‘lmoqda. Ba’zi mualliflarning ta’kidlashicha, keng miqyosdagi korrupsiya o‘ta xavflidir, chunki birinchidan, u korrupsiyaning boshqa shakllarining vujudga kelishi uchun qulay psixologik fon yaratadi.[2]

P.I. Konovanning so‘zlariga ko‘ra, “ko‘p odamlar uchun korrupsiya imkoniyat bo‘lib, uning vositalari va usullari yordamida noqonuniy ravishda, ma’lum moliyaviy yo‘qotishlar hisobiga foyda olish va muammolarni qonunni chetlab o‘tgan holda hal qilish mumkin”. [3]

Rossiya siyosatchisi D.Medvedev yuqoridagi fikrni qo‘llab quvvatlagan holda maishiy korrupsiyani unutib, mansabdor shaxslarni ta’qib qilish bilan cheklanib qolmaslik kerakligini ta’kidlaydi.

Fikrimizcha, maishiy korrupsiya amaldorlarning korrupsiyasidan deyarli farq qilmaydi, chunki bu harakatlar pora berishga tayyor bo‘lgan odamlarning katta qismini qamrab oladi hamda ular mansabdor shaxslar korrupsiyasi uchun imkoniyat yaratadi. Shu sababdan ham profilaktika har qanday salbiy jarayonlarning dastlabki bosqichlarida rivojlanishining oldini olishning muhim vositasidir.

M. M. Vasyagina turli ijtimoiy va huquqiy maqomga ega bo‘lgan jamiyat ishtirokchilari o‘rtasida yuzaga keladigan huquqiy nizolarning oldini olish kontekstida korrupsiyaning oldini olishni ko‘rib chiqishni taklif qiladi. Muallifning ta’kidlashicha, huquqiy nizolarning oldini olish ko‘p bosqichli jarayon sifatida umumiy ijtimoiy,

umumiy huquqiy, individual, aniq darajalarda davlat organlari, tashkilotlar, jamoat birlashmalari tomonidan o'z vakolatlari doirasida muayyan vositalar va usullardan foydalangan holda, huquqiy sohada nizoli xatti-harakatlarning oldini olish va bostirish, nizolarni keltirib chiqaradigan omillarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha profilaktika choralari amalga oshirishga qaratilgan zarur tadbirlarni amalga oshirishda namoyon bo'ladi.[4]

S.Y. Novikov korrupsiyaga qarshi kurashni hayotning turli sohalarida korrupsiyani keltirib chiqaradigan va rag'batlantiradigan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha turli va izchil chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, korrupsiyaga botgan mansabdor shaxslarni fuqarolik javobgarligiga tortish chora-tadbirlari sifatida qaraydi.[5]

G.N. Gorshenkov korrupsiyaga qarshi kurashni korrupsiyaga qarshi siyosat orqali belgilaydi, bu uning talqinida asosiy tamoyillar, strategik yo'nalishlar, taktik vazifalar va ularni hal qilish usullarini ilmiy asoslangan baholash va prognozlash asosida ilmiy ishlab chiqish va amaliy amalga oshirishni nazarda tutadi.[6]

A.V.Malko, M.P.Petrovlar korrupsiyaga qarshi kurashni davlat funksiyasi sifatida ko'rib chiqishni taklif qiladilar. Mualliflarning fikricha, davlatning korrupsiyaga qarshi funksiyasi deganda korrupsiyaning sabablarini bartaraf etishga, davlat apparati faoliyatini normallashtirishga qaratilgan, eng qulay va foydali tarzda tashkil etilgan harakatlar majmui tushuniladi.

Umuman olganda yuridik adabiyotlarda korrupsiya jinoyatlarining oldini olish muammolari yetarli darajada rivojlandi. Korrupsiyaning oldini olishning ko'plab shakllari va usullari unga qarshi kurashish amaliyotida tegishli sinovlardan o'tgan. Q.Abdurasulova fikricha korrupsiya jinoyatchiligining umumiy va maxsus oldini olish choralari mavjud bo'lib, umumiy oldini olish korrupsiyadan yangi ijtimoiy munosabatlarni vujudga keltirish va mustahkamlash, bozor munosabatlariga ijtimoiy tayanch yaratish vositasi sifatida foydalanilishini istisno etish, shuningdek, jinoiy yo'l bilan topilgan daromadning rasmiylashtirilishi va ko'paytirilishini nazarda tutadi.

Korrupsiyaning maxsus oldini olish choralari esa quyidagilar kiradi:

- Davlat xizmatchilariga va mansabdor shaxslarga munosib hayot kechirish imkonini beradigan ijtimoiy ta'minot tizimini yaratish;
- Davlatning mansabdor shaxslari va boshqa toifaagi xizmatchilarining daromadlari va xarajatlarini deklaratsiyalash tizimini yo'lga qo'yish;
- Davlat xizmatiga kirishda kadrlar siyosati ustidan qattiq nazorat o'rnatish;
- korrupsiya va jinoyatchilikka qarshi kurash olib borayotgan shaxslar (va ularning oila a'zolari)ning xavfsizligini ta'minlash.[7]

Ushbu fikrlarga qo'shimcha qilgan holda davlat korrupsiyaning oldini olishda quyidagi qo'shimcha maxsus choralarni qo'llashi maqsadga muvofiq:

Ochiqlik. Korrupsiyaning oldini olishda davlat organlari faoliyatining ochiqligi, shaffofligi, hisobdorligi hamda bu boradagi jamoatchilik nazorati muhim ahamiyatga ega. Davlat organlari faoliyati va budget mablag'larining taqsimlanishi to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liq oshkor etilmasligi jamoatchilik nazoratiga to'sqinlik qiladi va korrupsiyaga sharoit yaratadi. Bu borada xorij tajribasiga e'tabor qaratadigan bo'lsak, jumladan, Daniyada 2002-yilda qabul qilingan "Korrupsiya to'g'risida"gi qonunning qoidalari Daniya hukumati vakillarini har yili o'z mol-mulki va shaxsiy daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlarni nashr etishga, xorijiy kompaniyalarda aksiyalarga ega bo'lishni taqiqlashga majbur qiladi, bu ularning boshqaruv faoliyatining oshkoraligi va shaffofligini, korrupsion holatlarini oldini olishga yordam beradi.

Korrupsiyaga qarshi ta'lim. Yosh avlod ongida korrupsiyaga qarshi kuchli va murossasiz immunitet shakllantirishga yo'naltirilgan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o'quv darslarini umumiy o'rta ta'lim maktablari dasturlariga kiritish maqsadga muvofiq. Inson shaxsiyati shakllanishining asosiy bosqichlari bog'cha va maktab davriga to'g'ri kelgani sababli ushbu davrda bolalarda korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish yuqori samara beradi.

Qozog'iston Respublikasining 2022-2026-yillarda korrupsiyaga qarshi siyosati konsepsiyasida (Qozog'iston Respublikasi Prezidentining 02.02.2022y. 802-son Farmoni) shaxs shakllanishining barcha bosqichlarida uni korrupsiyaga qarshi emlash muvaffaqiyatning fundamental omili hisoblanishi, bunda korrupsiyaga qarshi xulqni oilada rivojlantirish zarurligiga e'tibor qaratilgan.[8]

Hadyani huquqiy tartibga solish. Mansabdor shaxslar va davlat xizmatchilarining nohuquqiy, tamagirlik bilan fuqarolardan sovg'a, hadya niqobi ostida pora olishlarini cheklash maqsadida ularning sovg'a, hadya tariqasida olishi mumkin bo'lgan tovarlar narxining maksimal miqdorlarini belgilab qo'yish lozim. Rossiya fuqarolik qonunchiligini oladigan bo'lsak (RFning FK 575-moddasi), davlat xizmatchilarining eng kam ish haqining besh baravari miqdoridan ortiq summadagi hadyalarni olishi taqiqlangan. Boshqa rivojlangan davlatlarda hadya miqdori xususan, AQSHda 20 dollar, Fransiyada 35 yevro, Buyuk Britaniyada 140 funt, Kanadada esa mansabdor shaxslarning pul ko'rinishidagi sovg'alar olishi qat'iyon taqiqlanadi, Singapurda davlat boshqaruvida faoliyat ko'rsatuvchi mansabdor shaxslarning gonorar, zaym, qimmatli qog'ozlar kabi to'lovlarni olishi taqiqlangan.[9]

Davlat xizmatchilarining xulq-atvor kodeksini joriy etish. Davlat amaldorlari va xizmatchilarining halolligini saqlash va bunga imkoniyat yaratish maqsadida, nafaqat korxonada, muassasada, tashkilot doirasida, balki uning tashqarisida ham xodimlarning man etilgan xulq-atvor ko'rinishlarini namoyon etadigan, korrupsiya harakatlarining turli shakllarini aniq belgilaydigan Xulq-atvor Kodeksini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur. Xulq-atvor Kodeksi buzilgan hollarda xodimlarni javobgarlikka tortish imkonini beruvchi xulq-atvor sanksiyalar turlarining qat'iy

tartibini belgilash maqsadga muvofiq. O'rganilgan bir qator rivojlangan davlatlarda davlat xizmatchilarining qat'iy bo'ysunishi lozim bo'lgan, axloqiy va intizomiy me'yorlarni o'z ichiga olgan axloq kodekslari qabul qilinganiga guvoh bo'lamiz. Masalan, AQSHda 1990-yil 17-oktabrda qabul qilingan "Davlat mansabdor shaxslarining axloqiy xulq-atvor tamoyillari" to'g'risidagi qonun (Principles of Ethical Conduct for Government officers and employers); Buyuk Britaniyada "Davlat xizmatchisining maqomi" (The Civil Service order in Council), Davlat xizmatchilarining xulq-atvorining umumiy tamoyillari (General Principles of Conduct); Germaniyada "Davlat xizmatchisining intizomiy rejimi to'g'risida" Federal qonuni (Bundesdisziplinordnung — BDG); Fransiyada "Davlat xizmatchisining maqomi" to'g'risidagi qonun (1946-yil) amal qiladi. [10]

Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda aytishimiz mumkinki, davlatning korrupsiyaning oldini olish borasidagi siyosati ikki yo'nalishda qurilishi kerak:

Davlat, birinchi navbatda, jinoyat-huquqiy chora-tadbirlarni qo'llash va kriminal profilaktika choralari qo'llash orqali korrupsiyaning oldini olishga majburdir. Korrupsiyaning oldini olish tizimida asosiy urg'u korrupsiyaga uchrashi mumkin bo'lgan sohalar ustidan ma'muriy, moliyaviy va ijtimoiy-huquqiy nazoratning turli shakllarini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda namoyon bo'ladi.

Boshqa tomondan, korrupsiyaga qarshi kurashda viktimologik choralar muhim rol o'ynaydi. Umuman olganda, korrupsiya qurboni jamiyatning o'zidir. Shuning uchun ham har bir fuqaro jamiyat a'zosi sifatida korrupsiyadan nafratlanishini namoyon qilishi, har bir shaxs yagona jamiyat a'zosi sifatida korrupsiyaga qarshi faol pozitsiyani egallashi davlat hokimiyati vakillarining korrupsion harakatlariga sharoit yaratilishining oldi olishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo'l qo'ymaslik, jinoyatga jazo, albatta, muqarrar ekani to'g'risidagi qonun talablarini amalga oshirish bo'yicha qat'iy choralar ko'rishimiz zarur". Albatta, shaxs hamda jamiyat manfaatlarini yanada samaraliroq himoya qilish korrupsiyaning oldini olishning huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish ehtiyojini vujudga keltiradi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, korrupsiyaning oldini olish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish va unga yangi, yanada ilg'or, qat'iy va samarali choralarni joriy etish zarur.

Shu sababdan ham Yangi O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylandi. Buni so'nggi yillarda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ma'muriy islohotlar sohasiga oid konseptual ahamiyatga ega me'yoriy hujjatlar misolida ham ko'rish mumkin.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan **“O‘ZBEKISTON — 2030”** strategiyasi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlarning uzviy davomi bo‘ldi. Ushbu hujjatda korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirish maqsadida:

- 100 foiz normativ huquqiy hujjatlarning “korrupsiyadan holi qonunchilik” tamoyili asosida ishlab chiqilishini ta’minlash;
- Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzish holatlarini 2 barobarga kamaytirishga erishish;
- “Transparency International” xalqaro tashkiloti tomonidan e’lon qilinadigan Korrupsiyani qabul qilish indeksida kamida 50 pog‘onaga ko‘tarilishga erishish kabi ustuvor vazifalar belgilab qo‘yilgan.[11]

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi farmoni bilan qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2023-2024-yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi ham korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan ishlarning natijadorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.[12]

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, korrupsiyaga oid jinoyatlarning oldini olish murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, kompleks yondashuvni va jamiyat hayotining turli jabhalari ishtirokini taqozo etadi. Ammo shuni ta’kidlash joizki, korrupsiyaga qarshi kurashish nafaqat tegishli chora-tadbirlarni ko‘rish, balki ularni amaliyotga samarali tatbiq etishni ham talab qiladigan uzoq va doimiy jarayondir. Bunda butun jamiyat, jumladan, fuqarolar va nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtiroki ham talab etiladi.

REFERENCES

1. Бахарев Д.В. Основные направления совершенствования законодательной базы в области организации противодействия коррупции в органах местного самоуправления [Электронный ресурс] // <http://www.crim-pravo.ru/blog/corruption/570.html> [Дата обращения 15.05.2024г.]
2. Васильев В.И. Борьба с коррупцией и местное самоуправление // Журнал российского права. – 2021.
3. Гаджиев Д. М. Коррупция: общероссийские и региональные аспекты / Д. Гаджиев, М. Гаджиев // Власть. – 2022. – № 6.
4. Ю. Ю. Малышева. Понятие коррупционного преступления по уголовному законодательству современной России. Угрозы и безопасностью № 36 (177) – 2012.

5. Новиков С. Ю. Антикоррупционная политика российского государства в современных условиях: автореф. дис. канд. полит. наук. Ставрополь, 2009 [Электронный ресурс]. URL: <http://www.dissercat.com/content/antikorrupsionnaya-politika-rossiiskogo-gosudarstva-v-sovremennykh-usloviyakh> (дата обращения: 16.05.2024)
6. Горшенков Г.Н. Политика противодействия коррупции // Бизнес. Образование. Право. 2014. № 2(27). С. 62-67.
7. Q.R.Abdurasulova. Kriminologiya. Darslik. - T.: Adolat, 2007. 182-b.
8. Об утверждении Концепции антикоррупционной политики Республики Казахстан на 2022 - 2026 годы и внесении изменений в некоторые указы Президента Республики Казахстан - ИПС "Әділет" (zan.kz).
9. Актуальные проблемы противодействия коррупции : учебник / под ред. А. В. Юрковского. Иркутск : Иркутский юридический институт (филиал) Университета прокуратуры Российской Федерации, 2018. 105 с
10. Волженкин Б. В. Коррупция: Серия "Современные стандарты в уголовном праве и уголовном процессе". СПб, 2016. с-15.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'ZBEKISTON — 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son. <https://lex.uz/docs/-6600413>.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.11.2023 yildagi PF-200-sonli "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6676585>.